E'LON

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 25/5 kunduzgi guruhida 1 5 - d e k a b r kuni soat 12-00 da "Ona tili" fanidan "Frazeologik birliklarning tasnifi. Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash". mavzusida ochiq dars bo'lib o'tadi.

Barchani taklif qilamiz!

Manzil: Maktabgacha va boshlang'ich ta`lim fakulteti, 3-etaj, 313-auditoriya

Kafedra o'qituvchisi
G.M.Haydarova

Scanned with CamScanner

CHDPU "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi Haydarova Gulrux Muhammadaminovna tomonidan o'tkazilgan ochiq dars yuzasidan

EKSPERT XULOSASI

Fan: "Ona tili"

Mashg'ulot turi: amaliy

Mavzu: "Frazeologik birliklarning tasnifi. Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash"

Kurs: 1-kurs; guruh: 25/5

Ta'lim yo'nalishi: "Boshlang'ich ta'lim"

Mashg'ulot o'tkazilgan sana: 2025 yil 15-dekabr

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi Haydarova Gulrux Muhammadaminovna 2025 yil 29-noyabr kuni, 1-smena, 3-juftlikda 303-auditoriyada Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 25/5-guruhiga "Ona tili" fanidan, "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash" mavzusida amaliy mashg'ulotidan ochiq dars o'tdi. Ochiq dars ishchi dastur va kalendar-tematik rejaga muvofiq tashkil etildi.

O'qituvchi mazkur fandan amaliy dars mashg'ulotini olib borishda barcha materiallaridan to'liq foydalandi. O'qituvchi ma'ruza mashg'ulotini olib borish jarayonida ona tili fanining maqsadi — ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, madaniy rivojlanishi va shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligini ta'kidladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ona tili ta'limining asosiy vazifasi — barkamol, nutq madaniyati rivojlangan, milliy qadriyatlarni anglay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratligi haqida batafsil va asosli ma'lumotlar berdi.

Amaliy mashg'ulotini olib borgan o'qituvchi o'z fikrlarini ravon, aniq va ifodali tarzda yetkaza oldi. U so'z boyligini o'rinli qo'llash, matn ustida ishlash hamda nutq madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratdi.

Dars taqdimot va tarqatma materiallar asosida olib borilib, unda so'z turkumlari, ularning morfologik belgilari hamda shakl va ma'no munosabatlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchi Haydarova Gulrux Muhammadaminovna tomonidan o'tkazilgan ochiq dars yuqori darajada tashkil etilganligini e'tiborga olib, uni ijobiy baholayman.

O'zDJTSU "Sport psixologiyasi va pedagogika" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori (Dsc)

J.M.Ishtayev

Scanned with CamScanner

CHDPU "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi Haydarova Gulruh muxammadaminovna tomonidan o'tkazilgan ochiq dars yuzasidan

EKSPERT XULOSASI

Fan: "Ona tili"

Mashg'ulot turi: amaliy

Mavzu: "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash"

Kurs: 1-kurs; guruh: 25/5

Ta'lim yo'nalishi: "Boshlang'ich ta'lim"

Mashg'ulot o'tkazilgan sana: 2025 yil 15-dekabr

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi Haydarova Gulrux Muhammadaminovna 2025 yil 29-noyabr kuni, 1-smena, 3-juftlikda 303-auditoriyada Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 25/5-guruhiga "Ona tili" fanidan, "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash" mavzusida amaliy mashg'ulotidan ochiq dars o'tdi. Ochiq dars ishchi dastur va kalendar-tematik rejaga muvofiq tashkil etildi.

O'qituvchi mazkur fandan amaliy dars mashg'ulotini olib borishda barcha materiallaridan to'liq foydalandi. O'qituvchi ma'ruza mashg'ulotini olib borish jarayonida ona tili fanining maqsadi — ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, madaniy rivojlanishi va shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi muhim omil ekanligini ta'kidladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ona tili ta'limining asosiy vazifasi — barkamol, nutq madaniyati rivojlangan, milliy qadriyatlarni anglay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratligi haqida batafsil va asosli ma'lumotlar berdi.

Amaliy mashg'ulotini olib borgan o'qituvchi o'z fikrlarini ravon, aniq va ifodali tarzda yetkaza oldi. U so'z boyligini o'rinli qo'llash, matn ustida ishlash hamda nutq madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratdi.

Dars taqdimot va tarqatma materiallar asosida olib borilib, unda so'z turkumlari, ularning morfologik belgilari hamda shakl va ma'no munosabatlari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchi Haydarova Gulrux Muhammadaminovna tomonidan o'tkazilgan ochiq dars yuqori darajada tashkil etilganligini e'tiborga olib, uni ijobiy baholayman.

CHDPU "Maktabgacha vaboshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi dotsenti, f.f.f.d (PhD) **Q.A.Mambetaliyev**

Scanned with CamScanner

Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining navbatdagi – sonli ishlab chiqarish yig‘ilishi bayonnomasidan

KO‘CHIRMA

Chirchiq shahri **2025 yil** _____

Qatnashdilar : kafedraning barcha a’zolari.

KUN TARTIBI:

1. 2025 yil 15-dekabr kuni “Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsent v.b. Haydarova Gulruh Muxammadaminovnaning “Ona tili” fanidan “Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash” mavzusida Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 25/5-guruhlarida o’tkazilgan ma’ruza mashg‘ulotning muhkomasi.

ESHITILDI: Kafedra mudiri D.A.Mutalova maskur masala yuzasidan o‘qitivchisi Haydarova Gulruh Muxammadaminovnaning “Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash” mavzusida Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 25/5 guruhida o‘tkazilgan ma’ruza mashg‘ulotning muhkomasini e’lon qildi.

SO ‘Z: o‘qiyuvchi Haydarova Gulruh Muxammadaminovnaga berildi.

G.M.Haydarova so’zga chiqib, ochiq ma’ruza mashg‘ulot yuzasidan quydagi fikirlarni bildirdi: “Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash” mavzusidagi amaliy mashg‘ulot “aqliy xujum”, “og‘zaki bayon”, “savol-javob”, “BBB-metodi” v.b. kabi bir qator metodlardan foydalanilgan holda o’tkazildi.

Darsni oldingi o‘tilgan mavzuni takrorlash uchun o‘rtaga savollar tashlash bilan boshladim. Har bir mavzu yuzasidan tayyorlanib kelgan talabalar yordamida asosiy mavzuning mohiyatini ochishga harakat qildim. Bunda men “Aqliy hujum”, “Klaster” metodlaridan foydalandim. Tayanch tushunchalarning mazmunini tahlil qildim. Ma’ruza mashg‘ulotida o‘z oldimga qo‘ygan maqsadimga erishdim, deb hisoblayman.





Scanned with CamScanner

So'zga chiqdilar:

Kafedra o'qituvchisi **N.Yu.Raximova so'zi:**


G.M.Haydarovaning "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash" mavzusida o'tilgan amaliy mashg'uloti talabalarni shu mavzu yuzasidan to'liq tushunadigan darajada tashkil etilgan. Talabalar bilan faol muloqot butun dars davomida olib borildi. Talabalarning faolligi ularning o'tilgan ma'ruza mashg'ulotlariga puxta tayyorgarlik ko'rganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, o'qituvchining talabalar javoblariga bo'lgan e'tibori va uni shu daqiqaning o'zidayoq ballar bilan rag'batlantirib borishi e'tiborga loyiqdir.






Kafedra o'qituvchisi **A.T.Rustemov so'zi:**

G.M.Haydarovaning nutqi ravon va tushunarli, matn va so'z bilan ishlashga a'lohida e'tibor qaratdi. Bildirilayotgan fikrlari asosli, ayniqsa, talabalar tomonidan mazkur mavzuni o'zlashtirish holati yuzasidan har bir talaba o'qituvchining diqqat e'tiborida bo'ldi. O'qituvchi taqdimot materialidan keng foydalandi. Ayrim rejalarda talabalarni fikrlarini so'rab, mavzuni mustahkamalab bordi.





QAROR QILINDI:

1. Kafedra o'qituvchisi G.M.Haydarovaning "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash" mavzusida Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 25/5 guruhida o'tkazilgan ochiq amaliy mashg'uloti ijobiy baholansin.

Scanned with CamScanner

2. o‘qituvchisi G.M.Haydarovaning “Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash” mavzusida Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 25/5 guruhida o‘tkazilgan ochiq amaliy mashg‘uloti zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilganligi e’tirof etilsin.

Yig‘ilish raisi: **D.A.Mutalova**
Kotiba: **T.I.Urmonova**

Scanned with CamScanner

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakulteti sifat komissiyasining "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim nazariyasi va amaliyoti" kafedrasi o'qituvchisi Haydarova Gulruh muxammadaminovnaning 2025 yil 15-dekabr kuni soat 12:00 da o'tkazgan ochiq darsiga

XULOSASI

Fan: "Ona tili".

Dars "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" fakultetining 313-auditoriyasida 1-bosqich boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 25/5guruh talabalari bilan olib borildi.

Dars mavzusi: "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash"

Dars olib borish tizimi: o tilida olib borildi.

Sifat komissiyasi raisi: p.f.n. dots. A.Karimjanov

Qatnashdilar: p.f.d. prof. T.L.Xurvaliyeva, p.f.f.d. (PhD) dots. Z.S.Teshabaeva, p.f.f.d. (PhD) dots. v.b. T.M.Sultanov, dots. Z.X.Abdinazarova, o'qit. N.Yu.Raximova, o'qit. A.T.Rustemov.

O'qituvchining tarqatma materiallari, dars rejasi, dars soati taqsimoti mavjud.

Ochiq dars o'z vaqtida jadval bo'yicha boshlanib, talabalarning darsga qatnashish davomati tekshirildi: 26 tadan 26 ta talaba qatnashdi. Talabalar bilan o'tilgan mavzu yuzasidan tezkor savol-javob o'tkazildi. So'ngra o'tiladigan mavzu doskaga yozib qo'yildi. Dars mavzusi talabalarga doskada taxlil qilib berildi. Darsni mustahkamlash uchun talabalarga topshiriqlar berildi va doskaga chiqarilib yechimlari izohlandi. Faol ishtirok etgan talabalar baxolandi.

Darsning borish jarayoni: Talabalarga yangi mavzu tushuntirildi va mustahkamlandi. Dars oxirida yangi mavzu bo'yicha uyga vazifalar berish bilan yakunlandi.

Dars jarayonida barcha ko'zda tutilgan masalalar to'la va ifodali qilib yoritildi, hamda xulosa qilindi. Dars mavzusi talabalarga izohlash orqali taxlil qilib berildi. So'ngra bilimlarni mustahkamlash uchun savollar berildi. Savollarning yechimlari doskada talabalar bilan birgalikda taxlil qilindi. Dars oxirida mavzu xulosalandi.

So'zga chiqqanlar: p.f.n. dots. A.Karimjanov ma'ruza mashg'ulot talabalarni shu mavzu yuzasidan to'liq tushunadigan darajada tashkil etilgan. Talabalar darsga faol ishtirok etdi. Talabalar bilan faol muloqot butun dars davomida olib borildi.

Sifat komissiyasi a'zosi: p.f.d. (DsC) T.L.Xurvaliyeva: "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 25/5guruh talabalariga "Ona tili" fanidan "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash" mavzusida o'tilgan dars mazmuni taqvim rejasi hamda ishchi o'quv rejasiga to'liq mos keladi. O'qituvchi pedagoglarga mos ravishda kiyingan, xona va talabalar orasida o'zini tutishi o'rnak olishga loyiq. Pedagogik mahorati talablarga javob bera oladi. Yuqorida bildirilgan fikrlarni hisobga olgan holda, Sifat komissiyasi.

Qaror qilindi:

- G.M.Haydarovaning ochiq darsi ilmiy va nazariy jihatdan yuqori saviyada o'tdi.
- "Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiy belgilarini misollar asosida tavsiflash" mavzusidagi ochiq ma'ruza 91 ball bilan ijobiy baholansin.

Sifat komissiyasi raisi: **p.f.n. dots. A.Karimjanov**

Scanned with CamScanner




Frazeologik birliklarning tasnifi.Farzeologizmlarning asosiybelgilarini misollar asosida tavsiflash

Scanned with CamScanner

Reja:

1.Frazeologiya haqida umumiy ma’lumot.

2.Frazeologik iboralarning struktura va ma’no xususiyatiga ko’ra turlari.



Scanned with CamScanner


Frazeologiya haqida umumiy ma’lumot

Tilning lug’at tarkibida xuddi so’z singari maqsadga muvofiq tanlab ishlatish mumkin bo’lgan, shu tilda so’zlashuvchi har bir kishining xotirasida bir butun holda saqlanadigan til biriktirmoq, dili siyoh bo’lmoq, obro’si ko’tarilmoq, nog’orasiga o’ynamoq, ko’ngli xira bo’ldi, ko’z qirini tashladi, tomdan tarasha tushganday, yostiqdan bosh ko’tarmoq kabi iboralar ham mavjud.

Bu tipdagi iboralar **frazeologizmlar**, deb ularni o’rganadigan soha **frazeologiya** deb ataladi.



Scanned with CamScanner



- Frazeologik iboralar (*frazeologizmlar*) birinchidan, tilda ko'p vaqt bir qolipda ishlatilaverib, bo'linmaydigan (*bir butun*) holga kelib qolgan bo'ladi. Ikkinchidan, ibora tarkibida eng kamida ikkita so'z qatnashadi. Uchinchidan, ibora yoki uning bir qismi ko'pincha ko'chma ma'noda bo'lgani uchun obrazlilikka boy bo'ladi.
- Tilning lug'at sostavidagi so'zlar ham, frazeologik iboralar ham til birliklari sanaladi. Shu jihatdan ular quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

Scanned with CamScanner

- Ibora bir butun bir umumiy tushunchani bildiradi, shuning uchun ham u ma'no jihatdan ko'pincha bitta so'zga teng keladi. Masalan: ko'ngli ko'tarildi – xursand, kapalagi uchib ketdi – qo'rqdi, lom – mim demadi – indamadi.
- Ibora ma'no va grammatik jihatdan ma'lum bir so'z turkumiga mos keladi, shuning uchun ham u bir butun holda ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi va gapda ma'lum bir gap bo'lagi vazifasini bajaradi. Masalan, *Hamma ishlaridan ko'ngli to'q bo'lganidan* **(to'ldiruvchi)** *ikki kun ko'z ochib yumguncha* **(hol)** *o'tib ketdi.*
- *Gap qaytarishga* **(to'ldiruvchi)** *o'zingiz majbur qildingiz. Nega Nuri erkaklar ishiga burnini tiqadi* **(kesim).**
- Ibora so'z strukturasi va tarkibidagi so'zlarning joylashish o'rni *(tartibi)*ga barqaror bo'ladi. Masalan, *xamir uchidan patir, chuchvarani xom sanamoq.*



Scanned with CamScanner